



KOMPOZITSIYA FANINI O'QITISHDAGI INNOVATSION USULLARINING AHAMIYATI

Karshiboyeva Dilafruz Boxodirovna

Guliston davlat universiteti stajyor o'qituvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada, tasviriy san'atda kompozitsiyaning tuzilishi hamda o'qitilishida, zamonaviy innovatsion usullarni qo'llanilishi, talabalarning ijodiy imkoniyatini takomillashtirish, ularni ijodiy erkin, mustaqil hamda san'at olamida o'z uslub va yo'nalishlarini topa olishlarida ko'maklashish, innovatsion yondashuvlarning zaruriyati, jarayoni hamda uning natijalari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Kompozitsiya, rangtasvir, innovatsion usullar, talaba, ijodkor, interaktiv seminarlar, raqamli texnologiyalar, san'at, shaxsiy uslub, tajriba, amaliy o'rganish, tahlil, san'at asarlarini o'rganish.

Kirish. Ilm-fan, san'at va sport insonni, mamlakatni dunyoga tanitadi, shuningdek, xalqlararo do'stlikni, munosabatlarni yanada mustahkamlanishida, muhim rol o'ynaydi. Davlatimiz rahbari SH. M. Mirziyoyev tomonidan yosh ijodkorlarning kelajagi haqida "Tasviriy va amaliy san'at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir choratadbirlari to'g'risida" 2020 yil 21 aprel, PQ-4688-sonli qarori imzolandi. Unga ko'ra, tasviriy va amaliy san'at sohaslarida milliy merosimizni tiklash, Komoliddin Behzodning boy ijodiy merosini xalqimizga to'la yetkazish, soha rivojiga katta hissa qo'shgan atoqli rassom va xalq ustalari xotirasini abadiylashtirish, ijodiy yo'nalishda oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni tashkil etish, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish hamda mamlakatimizda tasviriy va amaliy san'at xamda dizayn sohasi samaradorligini yanada oshirish maqsad qilib qo'yilgandir [1]. Yurtboshimizning ushbu san'at sohasidagi qaror va farmonlaridan ham ko'rishimiz mumkin-ki, bugungi kunda ijodkorlar oldida muhim vazifalar turibdi. Avvalo, ustoz rassomlar ijodini kuzatish, o'rganish, tahlil etish va yosh rassomlarga san'at sirlarini puxta o'zlashtirib, bilim va ko'nikmalarining shakllanishida imkoniyatlar yaratish lozim. Binobarin, bunda Ijodkor uchun kompozitsiya qonun-qoidalarini puxta o'qib o'rganishi, uning tuzilishi, mohiyatini chuqur anglab yetmoq nihoyatda ahamiyatlidir. Kompozitsiya –bu ilm, unda tanlangan o'lchamli qog'oz yokixolst (va boshqa ashyolar) yuzasida detallarni shunday joylashtirish kerakki, ular yaxlit bir butunlikni tashkil qilishi kerak. Kompozitsiyada ideal holatga kelganida esa, unga na biror detal, chiziq qo'shimcha kiritishning, yoki biror ortiqcha detalni o'chirib tashlashning iloji bo'lmaydi. Yaxshi topilgan kompozitsiya yechimi asarning asosi hisoblanadi. Ushbu bilim va ko'nikmalar, kompozitsiya qonunlari, asrlar mobaynida o'zgarmasdan kelmoqda va bu kompozitsiyaning poydevoridir. Kompozitsiyaning badiiy yechimi muvaffaqiyatli topilgan taqdirda, tomoshabin asardagi ba'zi kamchiliklarni e'tiborsiz qoldirishi mumkin. Demak, asar kompozitsiyasining badiiy yechimining ahamiyati beqiyosdir [2]. Kompozitsiya fanini o'qitilishining maqsadi, yosh ijodkorlarni erkin mustaqil, ijodiy fikrlashga, ustoz rassomlar asarlarini, tajribalarini kuzatish, o'rganish va tomoshabinga estetik zavq bag'ishlovchi go'zal san'at asarlarini yaratishdan iboratdir. Kompozitsiyada ijodkorning dunyoqarashi, saviyasi, mahorati o'z ifodasini topadi. Kompozitsiya yaratish tizimi va usullari tarixiy sharoit, jamiyatning estetik qarashlari, davr talablari bilan bog'liq bo'lib, ularning o'zgarishi, san'atning o'zi, uning ijodiy metodlari rivoj topishi munosabati bilan o'zgarib, takomillashib, rivojlanib boradi. Realistik metodga tayangan holda yuksak

mahorat bilan kompozitsiya yaratish har bir buyuk san'atkorning fazilati hisoblanadi[3:7]. Kompozitsiya, yosh ijodkorlarda estetik ko'nikmalarni takomillashtirib, ijodiy erkinlik va g'oyalarni yanada rivojlantirish, tomashabinni o'ziga jalb etuvchi, chuqur ma'no beruvchi yangidan-yangi san'at asarlari yaratilishda ustuvor bo'lgan asosiy prinsiplarni o'rgatadi. So'ngi yillarda ta'lim mazmunini samaradorligini oshiruvchi ta'limning bir qator ishonchli interfaol metod va yo'llari izlanmoqda. Hozirgi kun tajribasida muammoli ta'lim deganda mashg'ulotlarda o'qituvchi-pedagoglar yaratiladigan muammoli vaziyatlar va ularni yechishga qaratilgan o'quvchilarning faol mustaqil faoliyati tushuniladi. Buning natijasida talabalar kasbiy bilimlarga, ko'nikmalarga ega bo'ladi va fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi [4:144]. Bugungi kunda, an'anaviy dars o'tish:

Nazariy - san'at tarixi, ranglar nazariyasi, kompozitsiya qonun-qoidalari, talabalarni faqatgina an'anaviy usulda ijod qilishga o'rgatish va bunga majburlash;

Nazorat va cheklov - talabalar ijodiy ishlarini muhokama qilish, unga pedagogning faqatgina o'z uslubi bo'yicha yondashuvi, ba'zan talabalar imkoniyatlarini inobatga olmaslik;

Kompozitsion qonun-qoidalardan chetlanish - bunda ba'zan ijodiy cheklovlar, ularni bir uslubda ishlashga undash;

Ko'rsatma va namuna – dars mobaynida ko'rgazmali qurol sifatida foydalanilishida kitob va manbaalarni doimiy ravishda yangilanmasligi kabi bir xillik va ba'zan an'anaviy dars o'tish uslublari ham talabalarni ijodiy, ruhiy toliqishlariga va san'atda o'zlarining bor ehtiyojlarini to'liq qondira olmaslik kabi holatlarga olib keladi. Bundan ko'rishimiz mumkinki, bugungi kunda talabaning erkin, ijodiy fikrlashida kompozitsiya fanining o'qitilishi va unda innovatsion usullarni qo'llash ayniqsa juda muhimdir. Innovatsion usullar yosh ijodkorlarga yangi g'oya va ko'nikmalarini shakllanishida yordam beradi, shuningdek, ularning ijodiy salohiyatini oshirish va rivojlantirish imkoniyatini beradi va bu bugungi kun zamon talabalaridan biri hamdir. "Zamonaviy talabalar" tushunchasi san'at va fan sohasidagi yutuqlar, jamiyatning rivojlanish darajasini hisobga olib, darsga qo'yilgan talabalar bo'lib, tasviriy san'at o'qitishning maqsad va vazifalariga mos holda keyingi o'quv-kasbiy hamda pedagogik faoliyatiga tayyorlashda xizmat qilishini bildiradi [5:21]. Zero, tasviriy san'at yo'nalishida tahsil oluvchi talabalar uchun kompozitsiya fanining o'qitilishida foydalaniladigan innovatsion usullar, jumladan, raqamli texnologiyalar, interaktiv ta'lim metodlari va loyiha asosidagi yondashuvlar yosh ijodkorlarning izlanishlarini yanada qiziqarli hamda samarali qilishga yordam beradi. Bunday dars o'tish usullari nafaqat jarayonni qiziqarli va samarali qiladi, balki talabalar o'rtasida jamoaviy ishlash hamda kreativ fikrlashga ham yo'naltiradi. Zamonaviy usullar, kompozitsiya fanini o'qitishda yangiliklarni joriy etish va uning ahamiyati hamda bu jarayonda yuzaga keladigan imkoniyatlarni o'rganishga zamin yaratadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tasviriy san'atda yosh ijodkorlar uchun kompozitsiya fani, muhim ahamiyatga egadir. Kompozitsiya tuzishga mohir bo'lgan va uni o'z asarlarida mukammal darajaga olib kelgan mo'yqalam ustalari ko'p, ularga misol qilib quyidagilarni qisman atab o'tsak o'rinli bo'ladi. Bunday o'tmish tasviriy san'ati ustalari: Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, A.Dyurer, J.D.Engl, P.Rubins, Rafael, Tintoretto, A.Ivanov, K.Bryullov, I.E.Repin, YA.Mateyko va boshqalardir. O'zbek rassomlaridan tasviriy san'atning turli tur va janrlarida ijod qilgan va hozirgi paytda ajoyib asarlar yaratib kelayotgan musavvirlardan ayrimlarini sanab o'tishimiz mumkin. O'.Tansiqboev, I.Ikromov, Z.Inog'omov, CH.Axmarov, X.Husniddinxo'jaev, A.Abdullaev, R.Ahmedov, R.CHoriev, I.Jabborov, A.Boymatov, J.Umarbekov, SH.Abdurashidov, A.Mirzaev, S.Abdullaev, A.Ikromjonov, B.Jalolov, A.Nuritdinov, O.Qozoqov va boshqa ko'plab ijodkorlarni bemalol kompozitsiya ustalari deb atashimiz, ularning asarlarini ijodiy jihatlari tahlil qilib, ibrat olishimiz mumkin, bu albatta o'quv-mashqlarni bajarishda nazariy asos vazifasini o'taydi[6:49]. Kompozitsiya fanni o'qitishda usta rassomlarning ijodiy ishlarining tahlili, ishlanish uslubi, texnologiyasi, samaradorligini talabalarga, an'anaviy usullar bilan bir qatorda innovatsion usullarni qo'llash ham ular o'rtasida ijodiy fikrlashni rivojlantirish, estetik ko'nikmalarini shakllantirish va zamonaviy san'at talablari bilan mos keladigan kompetentsiyalarni oshirishga yordam beradi. Tasviriy san'atda estetik tushunchalar go'zallik, estetik tajriba, tasviriylik va simvolizm kabi shakllarda namoyon bo'ladi. Go'zallikning har davr va madaniyatda o'ziga xos talqinlari bo'lgan va u

kompozitsiyaning asosiy tushunchasi bo'lib, insonlarning estetik qadriyatlarini belgilab, tasviriy san'atda o'z ifodasini topgan. Estetik tajriba orqali rassomlar san'at asarlarini emotsional his qilishadi va o'ziga xos tuyg'u va kechinmalar orqali ijodiy ishlarini yaratadilar [7].

Innovatsion ta'lim texnologiyasi - bu ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hozirgi tendentsiyalariga eng mos keladigan ta'lim faoliyati uchun shart-sharoitlarni yaratish uchun mavjud usullar va vositalarni qandaydir yangi yoki sifat jihatidan yaxshilashni o'z ichiga olgan ta'lim faoliyatini tashkil etish metodologiyasi. Ta'limdagi innovatsion faoliyat ta'lim sohasidagi innovatsiyalarning paydo bo'lishiga qaratilgan kompleks faoliyatni o'z ichiga oladi. Bu innovatsiyalar ta'lim jarayonini tashkil etishning usullari, ta'lim va tarbiya jarayonida foydalaniladigan resurslar, ilmiy nazariyalar va tushunchalar bo'lishi mumkin [8:2]. Adabiyotlar tahlili, kompozitsiya fanini mukammaligini hamda amaliyotga tadbiiq etiladigan innovatsion usullarni o'rganishda ahamiyatlidir. Bunda, yosh ijodkorlarning ijodiy erkinligi, fanni muvaffaqiyatli o'zlashtirishga qaratilgan ilmiy jurnallar, maqolalar, kitob va ilmiy tadqiqot ishlarini kuzatish, tahlil qilish va tanlashni tushunishimiz o'rinlidir. Jumladan, zamonaviy ta'limning tasviriy san'at, rangtasvir va kompozitsiya, ranglar uyg'unligi haqidagi o'zaro aloqalarni kuzatadigan, o'rganadigan ilmiy ishlar va ularning natijalarini aniqlash, tanlangan manbalarda keltirilgan g'oyalar, yondashuvlar va usullarni o'rganish, tahlil va sintez qilish, yosh ijodkorlar uchun yangi g'oya, ijodiy izlanishlaridagi yangicha uslub va yondashuvlarni o'zida aniqlashiga zamin yaratish, amaliy mashg'ulotlar davomida qo'llangan innovatsion usullarni tahlil qilish, olgan nazariy bilimlarini amaliy mashg'ulotlarida tadbiiq etishlarida muhim hisoblanadi.

Kompozitsiya fanini o'qitishdagi innovatsion usullarni qo'llash quyidagi metodologik yondashuvlarni o'z ichiga oladi:

An'anaviy metodlar: amaliy mashg'ulotlar hamda ma'ruzalar orqali yosh ijodkorlarni nazariy bilimlar bilan tanishtirib boriladi. An'anaviy dars o'tish metodlari yosh ijodkorlar uchun ijodiy jarayonlarda kerakli, asosiy bilimlarini shakllanishda muhim hisoblanadi. O'qituvchi ko'rgazmali qurollardan foydalanishi, san'at tarixi, kompozitsiya qonun - qoidalaridan namunalar keltirishi, o'zbek hamda jahon asarlarni ko'rsatishi, tahlil qilishi mumkin.

Innovatsion metodlar: an'anaviy metodlar asosida raqamli texnologiyalar va interaktiv ta'lim usullaridan foydalanib, onlayn ta'lim platformalari, multimedia resurslari va virtual ko'rgazmalar yordamida ta'lim jarayonini qiziqarli va samarali qilinishi, ijodkorlar o'rtasida kooperativ (hamkorlik) muhitni shakllantirishi, erkin, ijodiy, mustaqil fikrlashni yanada rivojlantirishi mumkin.

Loyiha asosidagi o'qitish: yosh ijodkorlarga o'zlari tanlagan mavzu va janrda kompozitsion loyiha ishlab chiqishlari uchun sharoit yaratish. Bu, talabalarga o'rgangan bilim, ko'nikma va malakalarini amaliyotda qo'llash va ijodiy salohiyatlarini rivojlantirishda muhim hisoblanadi. Ushbu usul orqali, ularda jamoaviy ish va muammolarni hal qilish ko'nikmalari ham rivojlanadi.

Reflektiv metod: Ushbu metod talabalarga o'rganganlarini tahlil qilishga o'zini ijodiy rivojlantirishga, o'z ustida yanada ishlashga undaydi. Ular o'z bilimlarini mustahkamlashlari, o'z ishlariga baho bera olishlari, o'zlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlab, kelajakda yangicha usul va uslublarda kompozitsion asarlar yaratishni o'rganadilar. Ushbu bosqichlar kompozitsiya fanini o'qitilishida samarali va natijali o'tishiga zamin yaratadi. Innovatsion yondashuvlar, pedagoglarga talabalarni zamonaviy uslubda, bugungi kun san'atiga mos keladigan talablar asosida o'qitish imkoniyatini beradi. Bunda, adabiyotlar tahlili, yosh ijodkorlar uchun yetakchi manba vazifasini o'taydi. Metodologiya esa, o'rganganlarini amalda qo'llashga xizmat qiladi.

Muhokama. Tasviriy san'at yo'nalishida tahsil oluvchi talabalarni o'qitish mobaynida qo'llaniladigan innovatsion yondashuv asosidagi kompozitsion g'oyalar, talabalarning ijodiy salohiyatlarini yanada rivojlantiradi qolaversa, kompozitsiya qonun-qoidalari, prinsiplari yuzasidan chuqurroq tushunchalarini shakllantirishiga zamin yaratadi. Yangi pedagogik yondashuvlar, masalan, raqamli resurslar va interaktiv o'qitish, talabalarning o'zlarini erkin ifoda etishlari va ijodiy ishlarni amalga oshirishlari uchun qulay muhit yaratadi.

Adabiyotlar tahlili: Ijodkorlarning kompozitsiya fanini muvaffaqiyatli o'zlashtirishlarida adabiyotlar tahlili nihoyatda ahamiyatlidir. Ular kitoblarni, ilmiy manbalarni kuzatish, o'zlashtirish orqali, san'at va kompozitsiya borasidagi so'nggi yutuq va tajribalarni o'z asarlarida qo'llashlari mumkin bo'ladi. Adabiyotlar tahlili yangi g'oyalar, yangicha uslub va san'at asarlarini kuzatish va tahlil asosida o'rganish qolaversa, kompozitsion jihatlarini yanada chuqurroq tushunish va o'zlashtirishlariga imkon beradi.

Metodologik yondashuvlar: Bunda, talabalarning shahsiy qiziqishlari va ko'nikmalarini inobatga olib, o'qituvchi dars rejasini tuzayotganda turlicha yondashuvlar ichidan ma'qul bo'ladiganini saralab oladi. Kompozitsiyani o'qitishda talabaning ehtiyojlaridan kelib chiqib, metodologik yondashuvlar tanlanishi zarur.

Yuqoridagi muhokama natijalari, rangtasvir yo'nalishi talabalari uchun kompozitsiya fanini o'qitishda innovatsion usullar va metodologiyalarning ahamiyatini ko'rsatadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'quv jarayonida qo'llashning istiqbollari bo'lib, multimedia-texnologiyalar asosida amaliy mashg'ulot hamda interaktiv ma'ruzalarni tashkil qilish samaralidir. Zero, an'anaviy ma'ruzalar o'qishga nisbatan interaktiv ma'ruzalarda talabalar o'qitish jarayoniga faol aralashishlari mumkin bo'lib, unda o'quv materialining turli joyidan savollar berib, aniq javoblar olish imkoniga ega bo'ladilar. Multimedia-texnologiyalarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining zamonaviy dasturiy texnik vositalarining mujassamlanishi talabalarning, ya'ni audioaxborot (ovoz), videoaxborot va animasiya (multiplikasiya, «tirik video») ko'rinishdagi axborotlarni turli xis etuvchi organlari tomonidan qabul qilish darajasini yuksaltirilishini ta'minlaydi. Bu esa darslarni qiziqarli va samarali tashkil etishni ta'minlaydi [9:87]. O'qituvchilar, innovatsion metodlarni qo'llash orqali ta'lim jarayonini yanada sifatli va samarali qilish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa kelajakda san'at sohasida muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Natijalar. Biz siz bilan rangtasvir yo'nalishi talabalari uchun kompozitsiya fanini o'qitishda innovatsion usullar, adabiyotlar tahlili va metodologiyaning o'zaro aloqasini ko'rib chiqdik. Tahlil natijalari quyidagi asosiy xulosalarga olib keldi:

Innovatsion yondashuvlar samaradorligi: Raqamli texnologiyalar va interaktiv o'qitish usullari, talabalarning dars jarayonida faol ishtirok etishlarini oshirishga yordam beradi. Bu usullar orqali talabalar o'z ijodiy salohiyatlarini yanada rivojlantiradilar va nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Adabiyotlar tahlilining ahamiyati: Mavjud ilmiy manbalarni chuqur tahlil qilish, yangi g'oyalar va yondashuvlarni ishlab chiqishga imkon beradi. Bu jarayonda talabalarning o'z ijodiy ishlariga qo'shgan bilimlari ularning san'at asarlaridagi kompozitsiya prinsiplarini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Metodologiya: O'qituvchilarning metodologik yondashuvi, talabalarning ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatlariga bevosita ta'sir qiladi. An'anaviy metodlardan tashqari, innovatsion yondashuvlar orqali talabalar o'z fikrlarini erkin ifoda etishlari va o'z bilimlarini kengaytirishlari mumkin.

Ijodiy fikrlash: Talabalar o'zlari tanlagan loyihalar orqali ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Loyiha asosidagi o'qitish, talabalar o'rtasida hamkorlikni rag'batlantirib, jamoaviy ish ko'nikmalarini ham oshiradi.

Ta'lim jarayonining sifatini oshirish: Innovatsion usullar va metodologiyaning integratsiyasi, kompozitsiya fanini o'qitish jarayonida ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Natijada, talabalarning estetik ko'nikmalari va san'atga bo'lgan qiziqishlari yanada ortadi.

Kuzatuv natijalari, rangtasvir yo'nalishi talabalari uchun kompozitsiya fanini o'qitishda adabiyotlar tahlili va innovatsion metodlarni qo'llashning ahamiyatini ko'rsatadi. O'qituvchilar bu yondashuvlar orqali talabalarni zamonaviy san'at va dizayn talabalariga mos ravishda tayyorlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa, talabalarning kelajakdagi professional faoliyatlarida muvaffaqiyatli bo'lishlariga hissa qo'shadi.

Xulosa. Ushbu ilmiy maqolada rangtasvir yo‘nalishi talabalari uchun kompozitsiya fanini o‘qitishda adabiyotlar tahlili va innovatsion metodologiyaning o‘zaro aloqasi o‘rganildi. Tahlil natijalari, o‘qitish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilish uchun zamonaviy yondashuvlarni qo‘llashning zarurligini ko‘rsatdi. Raqamli texnologiyalar va interaktiv o‘qitish usullari talabalarni faollikga undab ularda, ushbu metodlar orqali ijodiy fikrlash ko‘nikmalari rivojlanadi va ularning o‘z bilimlarini amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlari oshadi. Yo‘nalishdagi mavjud ilmiy manbalarni chuqur tahlil qilish, talabalar uchun yangi bilimlar va yondashuvlar ishlab chiqishga yordam beradi. Bu jarayon, o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida bilim almashishni kuchaytiradi hamda san‘at asarlaridagi kompozitsiya prinsiplarini yanada chuqurroq tushunishga xizmat qiladi. An‘anaviy usullardan tashqari, innovatsion yondashuvlar, talabalar uchun o‘z fikrlarini erkin ifoda etish va o‘z bilimlarini kengaytirish imkoniyatlarini yaratadi. Bundan tashqari loyiha asosidagi o‘qitish, o‘zaro hamkorlikni rag‘batlantirib, muammolarni hal qilishda jamoaviy yondashuvni kuchaytiradi. Innovatsion usullar va metodologiyaning birgalikdagi qo‘llanilishi, ta‘lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Natijada, talabalarning estetik ko‘nikmalari, san‘atga bo‘lgan qiziqishlari va ijodiy salohiyatlari yanada rivojlanadi.

Yakuniy xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, rangtasvir yo‘nalishi talabalari uchun kompozitsiya fanini o‘qitishda adabiyotlar tahlili va innovatsion metodlarni qo‘llash, ta‘lim jarayonining samaradorligini oshiradi va talabalarni zamonaviy san‘at talablariga mos rasvishda yetishib chiqishlarida muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvlar, talabalarning kelajakdagi professional faoliyatlarida muvaffaqiyatli bo‘lishlariga hissa qo‘shadi va bu ularning ijodiy salohiyatlarini yanada kengaytiradi.

Adabiyotlar:

1. Boxodirovna, Karshiboyeva Dilafuz. "GRAFIKA SAN'ATI TARIXI VA RIVOJLANISHI." *Journal of new century innovations* 12.3 (2022): 26-30.
2. Bohodirovna, Karshiboyeva Dilafuz. "TASVIRIY SAN'ATDA O'ZBEK MILLIY O'YINLARI KOMPOZITSIYASINING YORITILISHI VA UNING TARBIYAVIY AHAMIYATI." *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH* 7.12 (2024): 34-37.
3. N.Xusanov "Kompozitsiya" (dastgohlik grafika). O‘quv qo‘llanma. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent - 2007
4. S.Sulaymanova "Muammoli ta'lim texnologiyasining tavsifi va uning samaradorligi" *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.* 3(12),Dec.,2023
5. S.Abdirasilov, N.Tolipov "Tasviriy san'at o'qitish metodikasi" "Aloqachi" nashriyoti, Toshkent-2007
6. B.Tojiev, N.Isaxojieva "Qalamtasvir, rangtasvir va kompozitsiya asoslari" Toshkent-2011
7. Bohodirovna, Karshiboyeva Dilafuz. "TASVIRIY SAN'AT VA FALSAFA O'RTASIDAGI O 'ZARO BOG'LIQLIK HAMDA ULARDAGI ESTETIK TUSHUNCHALARNING INSONIYAT MADANIYATIGA TA 'SIRI." *Научный Фокус* 2.19 (2024): 356-358.
8. N.Saliyeva "Oliy ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish muammosini o'rganishning ilmiy – metodik asoslari" *Fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi.* Aprel 2022.
9. U.Nazarov, A.Karimov "Ta'limda axborot texnologiyalari" fanidan ma'ruzalar matni. – Samarqand: SamDAQI nashri, 2014
10. Ch, Sadatov, and D. O. Xamidov. "AUTOCAD DASTURINING UCH O 'LCHAMLI LOYIHALASH IMKONIYATLARI." *MODELING" PANELI BUYRUQLARI." VISUAL STYLES", " VIEW" PANELI BUYRUQLARI VA ULARNING IMKONIYATLARI.* *Экономика и социум* 5-2 (108) (2023): 325-329.

11. Xamidov, Dilshod. "THE IMPORTANCE OF TEACHING" ENGINEERING ENGINEERING COMPUTER GRAPHICS" IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS." *International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING* 4.2 (2024): 320-323.
12. Berikbaev, Alisher. "TEACHING PROFESSION AND SKILLS WAYS TO BE A TEACHER." *Archive of Conferences*. Vol. 23. No. 1. 2021.
13. Rustambek o'g'li, Khudoyberdiyev Dostonbek. "USING NEURAL NETWORKS TO ANALYZE THE CREATIVE PROCESS." *INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS* 3.33 (2025): 63-67.
14. Berikbaev, Alisher Alikulovich, et al. "Development of competence skills of art education students." *International Journal of Psychosocial Rehabilitation* 24.4 (2020): 6984-6988.